

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI  
TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI**

Qo'l yozma huquqida  
UO'K: 657.6:65.012.32

**XUDAYBERDIYEV BAXTIYORJON MARIBJON O'G'LI**

**XO'JALIK YURITUVCHI SUBYEKTLARNING MOLIYAVIY HOLATI  
TAHLILI VA AUDITINI TAKOMILLASHTIRISH<sup>1</sup>**

08.00.08 – “Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit”

Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (Doctor of Philosophy)  
ilmiy darajasini olish uchun tayyorlangan

**DISSERTATSIYA**

**Ilmiy rahbar: i.f.d., prof. Xasanov B.A.**

**Toshkent shahri – 2025-yil**

---

<sup>1</sup>OAK Byulleteni 2023-yil 2-sonida B2023.2.PhD/Iqt3051 raqam bilan e'lon qilingan.

**I BOB. MOLİYAVIY XOLAT TAXLILI VA AUDITINING NAZARIY  
VA USLUBIY ASOSLARI..... 11**

- 1.1.§ Moliyaviy holat tahlilining mohiyati, nazariy-uslubiy va tashkiliy asoslari..... 11
- 1.2.§ Temir yo‘l transporti korxonalarida moliyaviy holat tahlili ko‘rsatkichlarini tasniflash va baholash mezonlari..... 21
- 1.3.§ Moliyaviy holat audit borasidagi xalqaro tajriba va uni temir yo‘l transporti sohasiga transformatsiya qilish yo‘llari..... 39
- Birinchi bob bo‘yicha xulosalar ..... 47

**II BOB. TEMIR YO‘L TRANSPORTI KORXONALARINING  
MOLIYAVIY BARQARORLIGINI TA‘MINLASHDA  
MOLIYAVIY HOLAT TAHLILI USULLARINI  
TAKOMILLASHTIRISH..... 48**

- 2.1.§ Korxonaning iqtisodiy resurslari, uning moliyaviy tuzilmasi va to‘lov qobiliyatini moliyaviy holatga ta‘sirining tahlili ..... 48
- 2.2.§ Moliyaviy barqarorlik va ishchanlik ko‘rsatkichlari tahlilini takomillashtirish..... 52
- 2.3.§ Temir yo‘l transporti aksiyadorlik jamiyatining iqtisodiy ko‘rsatkichlarini prognozlashtirish ..... 72
- Ikkinchi bob bo‘yicha xulosalar ..... 86

**III. BOB. TEMIR YO‘L TRANSPORTI KORXONALARIDA  
MOLIYAVIY HOLAT AUDITINI TAKOMILLASHTIRISH ..... 88**

- 3.1.§ Moliyaviy holat auditini xalqaro standartlar asosida rejalashtirish va risklarni baholash usullari ..... 88
- 3.2.§ Moliyaviy holat audit jarayonida axborot texnologiyalaridan foydalanish samaradorligini oshirish ..... 94
- 3.3.§ Audit o‘tkazish jarayonida moliyaviy holat tahlili ko‘rsatkichlaridan strategik prognozlash maqsadlarida foydalanish imkoniyatlari..... 101
- Uchinchi bob bo‘yicha xulosalar..... 109

**XULOSA ..... 111**

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI..... 113**

**ILOVALAR..... 119**

## KIRISH (falsafa doktori (PhD) Dissertatsiyasi annotatsiyasi)

**Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati.** Jahon iqtisodiyotida global raqobatning kuchayib borishi sharoitida moliyaviy holat tahlili va auditini xalqaro standartlar talablari asosida yuritishning ahamiyati ortib bormoqda. Tahlillar ko'rsatishicha, "jahonda moliyaviy holat tahlili va audit samaradorligini oshirish sohasida ko'plab zamonaviy innovatsion usullardan keng foydalanilmoqda. Raqamli texnologiyalardan foydalanish orqali moliyaviy holat tahlili jarayonini avtomatlashtirish samaradorlikni 10-15 foizga oshirishi va moliyaviy hisobotlarning aniqligini ta'minlashi mumkin"<sup>2</sup>. Mazkur rezervlar moddiy, moliyaviy va mehnat resurslaridan samarali foydalanish, moliyaviy barqarorlikni ta'minlash imkoniyatini yaratadi. Moliyaviy holat tahlili va audit vositasida xo'jalik subyektlari o'z aktivlari, kapitali va majburiyatlarini to'g'ri baholash, mablag'lar sarfini oqilona yo'naltirish hamda faoliyat samaradorligini oshirishga erishadi. Bu o'z navbatida, moliyaviy holat tahlili va auditini takomillashtirish sohasida tadqiqotlar o'tkazishni xalqaro darajadagi strategik vazifa qilib qo'yimoqda.

Jahonda xo'jalik yurituvchi subyektlarning moliyaviy holatini tahlil qilish va auditini takomillashtirish yo'nalishida keng ko'lamli ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda. Jumladan, aktiv va majburiyatlarning to'g'ri baholanishi, moliyaviy oqimlarni samarali boshqarish va korxonaning moliyaviy barqarorligini ta'minlash uchun buxgalteriya hisobining zamonaviy usullarini qo'llash, raqamli texnologiyalarni joriy qilish, shuningdek, audit jarayonlarining samaradorligini oshirish masalalari tadqiq qilinmoqda. Moliyaviy tahlil va audit tizimini rivojlantirish, korxonalar moliyaviy ko'rsatkichlarini xalqaro standartlarga moslashtirish, shaffoflikni ta'minlash va moliyaviy xatarlarga nisbatan bardoshlilikni oshirish bu tadqiqotlarning asosiy yo'nalishlaridan biri hisoblanadi.

O'zbekistonda xo'jalik yurituvchi subyektlarning moliyaviy holati tahlili va auditini takomillashtirish maqsadida moliyaviy hisobotlarni xalqaro standartlarga

---

<sup>2</sup> [www.icaew.com/insights/viewpoints-on-the-news/2023/jun-2023/A-new-era-how-technology-is-reshaping-audit](https://www.icaew.com/insights/viewpoints-on-the-news/2023/jun-2023/A-new-era-how-technology-is-reshaping-audit)).

uygʻunlashtirish, audit jarayonlarini raqamlashtirish va hisobotlar shaffofligini oshirish boʻyicha aniq vazifalar belgilangan hamda bir qator amaliy chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Xususan, korxonalar moliyaviy hisobotini xalqaro moliyaviy hisobot standartlari (XMHS)ga moslashtirish, ichki audit tizimlarini kuchaytirish, soliq va buxgalteriya hisobini uygʻunlashtirish hamda moliyaviy tahlilda zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalanish jarayonlari yoʻlga qoʻyildi. Shu bilan birga, Davlat auditi instituti va Moliya vazirligi hamkorligida ichki moliyaviy nazorat va hisobot berish amaliyoti takomillashtirilib, korxonalar moliyaviy barqarorligini baholashda riskka asoslangan yondashuv joriy etildi. Bu choralar moliyaviy nazoratning samaradorligini oshirish va milliy iqtisodiyotning barqarorligini taʼminlashga xizmat qilmoqda<sup>3</sup>. Tadqiqotlarning koʻrsatishicha hozirgi paytda xoʻjalik subyektlarida iqtisodiy tahlil ishlarini yuritish xususan moliyaviy holatni tahlil qilish globallashtirish jarayonidagi xalqaro talablar va mezonlarga toʻliq mos kelmaydi. Moliyaviy holatni tahlil qilish sohasida atroflicha va chuqur ilmiy tadqiqotlar olib borish, muammoning tashkiliy va uslubiy asoslarini shakllantirish dolzarb masala hisoblanadi. Bu va boshqa holatlar mazkur dissertatsiya ishi mavzusining zamonaviyligi, dolzarbligi va ilmiy izlanishlar olib borish zaruratini belgilaydi.

Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 21-fevraldagi PF-37-son “Oʻzbekiston-2030” strategiyasini “Yoshlarni qoʻllab-quvvatlash yili Davlat dasturi toʻgʻrisida”, 2023-yil 11-sentyabrdagi PF-158-son “«Oʻzbekiston-2030” strategiyasi toʻgʻrisida», 2023-yil 21-iyuldagi PF-111-son “Maʼmuriy islohotlar doirasida investitsiyalar, sanoat va savdo sohasida davlat boshqaruvini samarali tashkil qilish chora-tadbirlari toʻgʻrisida”, 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son “2022-2026-yillarga moʻljallangan Yangi Oʻzbekistonning taraqqiyot strategiyasi toʻgʻrisida”, 2021-yil 9-martdagi PF-6191-son “Mamlakatda moliyaviy boshqaruv tizimini yanada takomillashtirish va davlat mablagʻlarining samaradorligini oshirish

---

<sup>3</sup> Oʻzbekiston Respublikasi Moliya vazirligi hisoboti, 2023-yil. URL: <https://www.mf.uz>